

Bugun o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 21-oktabr
N:42 (66947)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

NAVOIYDAN QOLGAN MEROSIM

Til millatning qalbi, ruhi, nomusi, boyligi, bebaho mulkidir. U onadek ulug' va mo'tabar, otadek e'zozli va ardoqli. Til asrlarni asrlarga, ajdodlarni avlodlarga bog'laydi. U xalqimizning eng buyuk qadriyatlaridan biri, millatning o'zligini namoyon qilish vositasi. Shunday ekan, ona tilimizni sevimimiz, uni puxta o'rganishimiz, sof, musaffo saqlashimiz, yanada ravnaq topishiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Bu ona xalqimizga, jonajon Vatanimizga bo'lgan beqiyos muhabbatimiz ramzidir.

(Davomi 2-betda)

NURXONADA BAYRAM BO'LDI

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 239-maktab o'quvchilari bu yilgi til bayramini Respublika bolalar kutubxonasida nishonlashdi. Bolalarning sevimli adiblari Miraziz A'zam va Shukur Qurbon ishtirokidagi «Til – millat ko'zgusi» nomli tadbir o'g'il-qizlarga juda manzur bo'ldi. Adiblarimiz ona tilimizni asrlar silsilasidan omon chiqib, tobora sayqallanib, go'zallashib borayotgani haqida faxr va iftixor bilan so'zlashdi. Ulardan o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olgan o'quvchilar endilikda mazkur kutubxonaga a'zo bo'lgan holda ko'proq badiiy adabiyotlar o'qishga, ona tilimizni qadrlashga va'da berishdi. Axir tadbirdan ko'zlangan maqsad ham shu edi-da!

O'SMIRLARIMIZ JAHON CHEMPIONATIDA



Birlashgan Arab Amirliklarida boshlangan 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida bizning yosh futbolchilarimiz ham borligi juda quvonarli.

(Davomi 7-betda)



Z. NISHONOVA olgan surat

(Boshi 1-betda)

Til haqida, xususan, o'zbek tili haqida gap ketganda, beixtiyor uning ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma – Navoiy bobomizni yodga olamiz. Zero, Hazrat Navoiy tilimizning keng imkoniyatlari, boyligi-yu nafisligi, betakrorligi-yu jozibadorligini namoyish etib, bu tilda o'ttizdan ziyod she'riy, nasriy asarlar yaratdi, uni dunyo miqyosiga olib chiqdi va turkiy tilda ijod qilgan bilan benihoya faxrlandi.

Uning bu boradagi beqiyos xizmatlarini e'tirof etib, Yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarlarida «Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan», deb yozgan edilar. Shunig uchun ham o'zbek tilini haqli ravishda, Navoiydan qolgan merosim, deya ulug'laymiz.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi Rahmatilla BARAKAYEV bilan qilgan suhbatimiz ham aynan ana shu bebaho merosimiz xususida bo'ldi.

– Ma'lumki, 1989-yil 21-oktabrda xalqimizning xohish-irodasi, Yurtboshimizning tashabbusi va bevosita rahnamoligida «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi va bu kun «Ona tili kuni» deb e'lon qilindi. Mazkur Qonun mustaqillikka erishish arafasida turgan davlatimiz hayotida unutilmas voqea bo'lib tarixga kirdi. Ushbu Qonunning asl mohiyati nimalardan iborat edi?

– O'tgan XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandalardan biri bo'lmish Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining «Hifzi lison» maqolati «Hifzi lison deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadur» on oyinayi hayoti til va adabiyotidur» jumalari bilan boshlanadi. Darhaqiqat, har bir millat o'zining dunyoda borligini anglatishi uchun o'z ona tili va adabiyotiga ega bo'lmog'i dardkor. 1989-yilning 21-oktabrida O'zbekistonda «Davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilinishi va o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berilishi ana shu nuqtayi nazardan ona tilimizni qayta tiriltirdi, desak mutlaqo' mubolag'a bo'lmaydi.

Zero, ushbu Qonunning asl mohiyati, dastavval, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy, xullas, barcha sohalarida ish yuritishni davlat tilida amalga oshirishning qat'iy asoslarini belgilab berishida namoyon bo'ladi.

– O'zbek tiliga Davlat tili maqomini bergan

bilishdan tashqari, xorijiy tillarni ham o'rganish bugungi shiddatkor zamonimiz talabi, shunday emasmi?

– Jahon xalqlari tillarini o'rganish borasida mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan xayrli ishlarni nafaqat shiddatkor asrimiz talabi, balki, aslida, olim-u ulamo, shoir-u fuzalo bobokalonlarimiz bu borada amalga oshirgan ishlarning tabiiy-mantiqiy davomi deb o'ylayman. Chunki bundan

samaralari nimalarda namoyon bo'lmoqda?

– Bugungi kunda ko'plab xorijiy mamlakatlarida o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham, aslida, tabiiy ehtiyojlar mahsuli. Chunki minglab yillik tarixga ega bo'lgan ko'hna zamini-mizdagi Istiqlol sharofati bilan qayta tiklangan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy, diniy qadriyatlarimiz mahsuli bo'lmish behisob tarixiy yodgorliklarimizdan boshlab, bugungi kunda erishilgan natijalargacha, barcha-barchasi xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun qiziqarli. Jahon hamjamiyatida tobora o'zining munosib o'rini egallab borayotgan mamlakatimiz eshiklari bizga ezgulik nazari bilan boqayotgan barcha insonlar uchun keng ochildi. Ayniqsa, ko'plab tabiiy boyliklar mavjudligi, qo'li gul, mehnatsevar xalqimiz yetishtirayotgan turli-tuman qimmatbaho xomashyolarga ehtiyoj kattaligi tufayli bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida ishga tushirilayotgan ko'plab xorijiy va qo'shma korxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan xorijlik ishbilarmonlar, yurtimizdagi tarixiy yodgorliklarni ko'rish ishtiyoqidagi xorijlik sayyohlar va hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borishga ishtiyoqmand xorijlik olimlarning ona tilimizni o'rganishga bo'lgan sa'y-harakatlari quvonarlidir. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida keyingi yillarda Koreya Respublikasi, Xitoy, Vietnam, Turkiya, Afg'oniston singari bir qator xorijiy mamlakatlardan kelgan o'nlab tadqiqotchilar o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligi ixtisosliklari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Bugungi kunda koreyalik tadqiqotchi O.Eungkyong «Jumong» va «Alpomish» dostonlarining qiyosiy-tipologik tadqiqi mavzuidagi doktrinalik dissertatsiyasini yakunlash arafasida. Koreyalik tadqiqotchi Kim Byong Inning «Koreyscha – o'zbekcha va o'zbekcha – koreyscha lug'at» yaratgani esa bu boradagi hamkorliklarning amaliy natijasidir.

– Insonning Vatani ga bo'lgan cheksiz muhabbatini o'z tiliga bo'lgan muhabbatsiz tasavvur etish mumkin emas. Bugungi yoshlarimizning o'z ona tilini bilishlaridan, unga hurmat-ehtirom ko'rsatishlaridan ko'nglingiz to'ladimi?

– Keskinroq qilib aytadigan bo'lsak, avvalo, ona tilini mukammal egallagan kishidan qanday qilib vatanparvarlik, o'z xalqiga, millatiga, yurtiga sadoqat tuyg'ularini kutish mumkin?! Zero, «ona tili» tushunchasi hamma vaqt «ona yurt» tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Men bugungi yoshlarimizning ona tilimizga bo'lgan hurmat-ehtiromlari ona Vatanga bo'lgan hurmat-ehtiromlari bilan hamisha hamohang bo'lishini tilayman.

– Mazmunli suhbatigiz uchun tashakkur! Til bayramimiz barchamizga muborak bo'lsin!

Feruza JALILOVA suhbatlashdi

NAVOIYDAN QOLGAN MEROSIM

Qonunning qabul qilinganiga ham 24 yil bo'ldi. Shu yillar mobaynida ona tilimizning xalqimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rni, uning nufuzini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar xususida to'xtalangsiz.

– Istiqlol sharofati ila ona tilimizning xalqimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rni milliy, madaniy, adabiy, tarixiy, diniy qadriyatlarimizning tiklanishi bilan babbaravar yuksaldi, nufuzi oshdi. Shu o'rinda birgina O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar xususida to'xtalib o'tmoqchiman: 2006–2008-yillarda bugungi kunda tilimizda faol qo'llanilayotgan 80 mingdan ziyod so'z va so'z birligini qamrab olgan 5 jildidan iborat muazzam «O'zbek tilining izohli lug'ati»ning chop etilishi lug'atehlik borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning dastlabki jiddiy natijasi o'laroq tilshunosligimiz tarixida o'ziga xos hodisa bo'ldi. Kechagina nashrdan chiqqan, hali bosmaxona bo'yog'ining hidi ham qurib ulgurmagan, kirill va lotin yozuvlarida chop etilgan, 85 mingdan ortiq so'z va so'z birligini qamrab olgan akademik «O'zbek tilining imlo lug'ati» bu borada amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning yana bir e'tiborga sazovor mahsulidir. «Mumtoz adabiy asarlar lug'ati» maktab darsliklaridan o'rin olgan mumtoz adabiy asarlarning yosh kitobxonlar tomonidan to'la o'zlashtirilishiga yordam beradigan o'ziga xos qo'llanma bo'lsa, tilshunosligimiz tarixida ilk bor yaratilgan «O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati», avvalo, barcha kitobxonlar, xususan, adabiyot sohasiga endigina kirib kelayotgan yosh ijodkorlarimiz uchun qimmatli sovg'a bo'ladi, deb o'ylayman.

– Ko'hna va boy tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ulug' ma'rifatparvar bobokalonlarimiz ham til o'rganishga jiddiy e'tibor qaratishgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning bir asr muqaddam yozgan «Ikki emas, to'rt til kerak» degan fikri bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, o'z ona tilini mukammal

minglab yillar avval ham dunyo ilm-fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ulug' ajdodlarimiz ko'plab jahon xalqlari tillarini mukammal egallaganliklari bilan nafaqat o'z zamondoshlari, balki keyingi davr avlodlarini ham hayratga solganliklari bugungi kunda hech kimga sir emas. Birikmi misol: ko'p tilli lug'atlar yaratish borasida amalga oshirilgan ishlar tarixi, aslida, XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Isxoqxon Ibratning 1901-yilda chop etilgan «Lug'ati sitta-alsina» («Olti tilli lug'at») asari arab, fors, hind, turk, o'zbek, rus tillarini qamrab olgan bo'lsa, Salohiddin Toshkandiyning 1903-yilda nashr qilingan «Lug'oti salos» («She'riy yo'lda yozilgan uch tilli lug'at») asari arab, fors va turkiy tillaridan iborat bo'lib, o'sha davrdagi maktablarda o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishlari uchun xizmat qilgan. Bugungi kunda ham institutimiz lug'atshunoslari ko'p tilli lug'atlar yaratish borasida samarali ilmiy izlanishlar olib borayaptilar. Maktabgacha ta'lim uchun yaratilgan rasmiy «Inglizcha – o'zbekcha lug'at»dan boshlab, ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun yaratilgan 20 ming, 30 ming, 50 ming, 70 ming so'zdan iborat «Inglizcha – o'zbekcha lug'at»lar, har bir qismi 10 ming so'zni qamrab olgan «Ruscha – o'zbekcha va o'zbekcha – ruscha lug'at» va bugun-erta kitobxonlar qo'lga yetib boradigan 60 ming so'zdan iborat 2 jildli akademik «Ruscha – o'zbekcha lug'at» singari o'nlab kitoblar, shak-shubhasiz, yoshlarimizning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan intilishlarini qondirishga munosib xizmat qila oladi. Biroq, shuni ham unutmaslik kerakki, xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan havas hech qachon ona tilini mukammal egallash talabini ikkinchi o'ringa qo'yish hisobiga bo'lmasligi kerak.

– Bugungi kunda xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar tufayli hatto xorijliklar ham o'zbek tilini o'rganishga qiziqish bildirishmoqda. O'zbek ijodkorlarining asarlari xorijiy tillarda chop etilayotgani quvonarli holdir. Bu borada yo'lga qo'yilgan xalqaro hamkorlik



Ma'lumki, har bir bilim dargohlarida yangi o'quv yilidan boshlab yangi forma joriy qilindi. Sifati ham, bichimi ham biz o'smir qizlarga juda mos bo'lgan bu formani ayrim tengdoshlarimning kaltalatib, toraytirib, «modaga moslab olishi» kishini ranjitadi, albatta. Yana ba'zi qizlarning sochlarini yoyib, baland poshnali tuflida kelishlari boshqalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

«YO ASLING BO'YICHA KO'RIN...»

Forma borasida ayrim o'g'il bolalarimiz ham qolishmayapti. Bo'yiga taqiladigan bo'yinbog'lar g'ijimlangan holda cho'ntakda kelib-ketadi. Bu manzarani ko'rib, buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning:

Yo asling bo'yicha ko'rin,

Yo ko'ringaning kabi, degan naqlini yodga olamiz.

Bunday tengdoshlarimga qarata, yoshlik ham, o'quvchilik davri ham bir marta berilishini, keyinchalik istasak ham forma kiya olmasligimizni yana bir bor eslatib qo'yishni joiz deb bildim.

Go'zal OTAJONOVA,
Toshkent tekstil yengil sanoat instituti
qoshidagi akademik litseyi o'quvchisi

TIL O'RGANISHGA BEL BOG'LADIM

Dunyoda ellar ko'p, tillar ko'p. Lekin dunyo aholisining yarmi ingliz tilida so'zlashadi. Bu tilni biz ham chuqur o'rganishimizda Prezidentimizning «Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori dasturlamal bo'lyapti.

Mazkur Qaror ijrosini ta'minlash borasida barcha umumta'lim maktablarida ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bizning maktabimizda ham ikkita ingliz tili xonasi tashkil etildi. Quyi sinf o'quvchilariga ingliz tili yangi texnologiyalar asosida o'rgatila boshlandi. Bu esa kichikintoylarning chet tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshir-

moqda. Shuningdek, bilim maskanimizda quyi sinflar uchun «Happy English», yuqori sinf o'quvchilari uchun esa «Friendship» nomli to'garaklar tashkil etildi.

Ingliz tili o'qituvchimiz Gulbahor opa Ahmedova to'garak mashg'ulotlarini qiziqarli, mazmunli tarzda o'tishlari ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishimizni yanada oshirmoqda. Buning uchun ustozimizdan behad minnatdormiz.

Ma'sumaxon SALOHIDDINOVA,
Farg'ona viloyati,
O'zbekiston tumanidagi
4-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



Bizga maktub yo'llabsiz...

OZOD YURT FARZANDIMAN

Bugun bizga dunyo yoshlari havas qilsa, arziydi. Chunki mamlakatimizda yosh avlodning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Ayniqsa, «Obod turmush yili» munosabati bilan yurtimizning barcha shahar-u qishloqlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari tahsinga loyiq. Jumladan, zamon talablariga mos ravishda barpo etilayotgan bilim dargohlari, sport majmualari yosh avlodning har jihatdan barkamol ulg'ayishimizga zamin yaratmoqda. Bugun ta'lim, san'at, sport sohalarida erishayotgan yutuqlarimiz tufayli bizni dunyo tanimoqda.

Men ham kelajakda yuksak marralarni ko'zlagan aka-opalarim singari yurtim dovrig'ini dunyoga yoymoqchiman.

Saidbahodir OLIMJONOV,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
34-umumta'lim maktabi o'quvchisi



TARIX - ULUG' MURABBIY

O'tmishga nazar tashlar ekanmiz, bugungi dorulamon kunlarimizning qadriga yetamiz, tinch va osoyishta diyorda unib-o'sib ulg'ayayotganimizni teran his etamiz. Yurtboshimizning: «Tarixsiz kelajak yo'q», degan e'tiroflarida chuqur ma'no bor. Bu so'z zamirida ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy madaniy merosini asrab-avaylash, uni mukammal o'rganish, bobolarimizga munosib farzand bo'lishdek ezgu maqsad yotibdi.

Yaqinda tumanimizda «Ajdodlar merosi - kelajak poydevori» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Qadim qadriyatlarimiz, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlarimiz aks etgan bu tadbirda bizning 3-ixtisoslashgan maktabimiz o'quvchilaridan tashkil topgan «Guldursun» guruhi 2-o'ringa sazovor bo'ldi. Bizga tarix fani o'qituvchimiz Go'zal opa Rajabova yaqindan yordam berdilar. Bunday tadbirlar biz yosh avlod qalbida ona yurtga muhabbat, o'tmishimizga hurmat hissini uyg'otishi, shubhasiz.

Sohibjamol MADRIMOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Ellikqal'a tumanidagi 3-ixtisoslashgan maktab o'quvchisi

familiyasi turardi. Quvonchini ichiga sig'dirolmay, o'qigan kitoblarini bir-bir xayolidan o'tkazdi. Yana ko'proq kitob o'qigisi keldi. Shunda yaqindagina «Namangan» nashriyotida chop etilgan «Bahor nafasi» deb nomlangan o'zining jajji kitobchasini qo'lliga oldi. Kitobchadan o'rin olgan «Ona tilim - jon-u dilim» nomli hikoyasini yana bir marotaba ovozi chiqarib o'qidi.

Tanaffus paytida Ahmad va Adhamning bir-birlariga haqoratli so'zlar aytishayotganini ustoz eshitib qoldi... Tarbiyaviy soatda esa ular bizga tar-

biyaning inson hayotidagi o'rni haqida gapirib berdilar. Shuningdek, so'zlashish madaniyatiga oid fikrlari bilan o'rtoqlashdilar, ibratli hikmatlardan, hadislardan aytib berdilar. Aytishlaricha, Muhammad alayhissalom o'z ulamolariga sizlab murojaat qilgan ekanlar. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomiz barchaga, hatto shogirdlariga ham hurmat bilan sizlab, murojaat qilganliklarini bilib oldik.

Ustoz oddiy so'zlashish madaniyatiga rioya qilmay, ona tilimizni buzib talaffuz qiladigan yoshlar oz bo'lsa-da, oramizda uchrab turishi haqida gapirganlarida, Ahmad va Adham bir-birlariga qarab go'yo «uzr» so'ragandek bo'ldilar...

Ushbu hikoyani qayta o'qib chiqqan Dilshodaxonning xayoliga bir fikr keldi: uni Til bayramiga bag'ishlangan tadbirda sinfdoshlariga ham o'qib beradigan bo'ldi.

OLMOS



DILSHODAXON

«Tong yulduzi» gazetasining doimiy muxlisi - Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Dilshodaxon Mamadaliyeva sevimli nashrining har bir sonini intilqlik bilan kutadi. Undagi maqolalar, she'rilar, hikoya va topishmoqlar tengdoshingizni befarq qoldirmaydi.

Yaqinda gazetasining 38-sonida e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi g'oliblari ro'yxatiga ko'zi tushdi-yu, hayajonlanib ketdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, ro'yxatning boshida uning ism-

Tarixi ming yillarga borib taqaladigan ona tilimizning go'zalligi, jozibasi, tarovati, jarangdorligi haqida qancha so'ylasak ham, oz.

TILIMIZ JOZIBASI

Buyuk bobolarimiz Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy turkiy tilning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun zahmat chekib, mehnat qilgan bo'lsalar, dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olimlar, bobokalonlarimiz — al Xorazmiy, al Beruniy, al Forobiy, al Farg'oniy ana shu tilda muloqot qilib, ilmiy tadqiqotlar, kashfiyotlar yaratganlar. Hazrat Navoiy bobomiz:

*«Turk nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam»,*

deya ana shu ikki qatorgina shirin lutflarida mamlakat, unda yashayotgan odamlarni birlashtirish, ahil-inoq, do'st, birodar bo'lib yashashlarida tilning o'rni, ahamiyatini juda ajoyib qilib ko'rsatib bergan. Shuningdek, daho shoirimiz o'sha davrlarda turk tilini mensimay, unga bepisand qaragan ba'zi kimsalarga bu tilning qanchalik katta imkoniyatlarga ega ekanini isbotlash maqsadida besh dostonidan iborat go'zal «Xamsa» asari va bir-biridan chiroyli, mazmunli, jarangdor she'r, g'azallarini turkiy tilida yozganlar.

Mustabid tuzum hukmronlik qilgan yillarda sobiq sho'ro hukumati o'zbek tilining rivojiga to'sqinlik qildi. Tom ma'noda, o'zbek tiliga mustaqillikka erishganimizdan keyin katta e'tibor berila boshladi. Tilimizning yanada rivojlanishi,

takomillashishi uchun davlatimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb belgilab qo'yilgan.

O'zingiz guvohsiz, ona tilimizda juda ko'plab

darslik, o'quv qo'llanmalari, kitoblar nashr etilyapti, gazeta va jurnallar chiqarilayapti. Istiqloq tufayli dunyo mustaqil O'zbekistonni tan oldi. Yer yuzining turli burchaklarida «Kurash!», «Yonbosh!», «Halol!» degan sof o'zbekcha so'zlarni eshitib, qalbimiz g'urur, iftixorga to'ladi. Ayting-chi, o'z yurtini, xalqini, tilini sevgan inson uchun bundan ham katta baxt bormi?!

Aziz o'quvchilar! Ona tilimizni asrab-avaylash, uning sofligi, obro'-e'tibori, maqomini saqlash hammamizning zimmamizdagi muqaddas burch ekanini unutmasligimiz kerak. Ona tilimizda muloqot qilganda, yozganda, ijod qilganda, uning qoidalariga qat'iy amal qilaylik. Tilimizning yanada boy, jozibali bo'lishi uchun ko'p o'qib, tinmay izlanishimiz kerak. O'zbek tilimizning qanchalik qadr-qimmatga ega ekanligining yana bir isboti — uni xorijiy davlatlarda ham o'rganishyapti, tadqiqotlar olib borishyapti. Mamlakatimizga kelib, o'zbek tilini o'rganayotgan chet elliklar soni ham kundan kunga ortib borayapti. Shunday ekan, ona tilimizning yanada boy, chiroyli, ohangdor, mazmunli bo'lishiga barchamiz hissa qo'shaylik.

Yusufjon HAMDAMOV,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti dotsenti



Yurtimiz bo'ylab o'zbek tili bayrami keng nishonlanayotgan ayni kunlarda men ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, qolaversa, davlat tilimizning taraqqiyotiga daxldor inson sifatida aziz o'quvchilarimga ayrim fikr va mulohazalarimni ularning sevimli nashri — «Tong yulduzi» orqali yetkazgim keldi.

O'YNAB GAPIRSANGIZ HAM...

Ba'zan o'quvchi-yoshlarning o'zaro behurmatlik bilan so'zlashayotganlarini eshitib qolaman. Ayniqsa, qo'l telefonlaridagi «sms» yozishmalarini o'qib, undagi xatolardan hayratlanasan, kishi. Buni o'quvchilar qisqartirib yozish, deya izohlashadi. Lekin, aziz o'quvchilar, keling, shu o'rinda biroz mulohaza yuritamiz! Axir xalqimizda «O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir» degan purma'no naql bor. Qolaversa, ertaga siz nufuzli tashkilot yoki idoralarda faoliyat yuritganingizda, insonlar orasida, avvalo, mulohaza bilan so'zlagan so'zingiz, muomala madaniyatingiz orqali hurmat qozonasiz. Jamoat joylarida, katta yoshli insonlar yonida ham do'stlaringiz bilan turli jargonlarni, rus tilidagi so'zlarni qo'shib so'zlashishingiz, ularga nisbatan behurmatlik ekanini o'ylab ko'ring! Ko'cha-ko'yda ayrim tengdoshlaringizning o'zaro munosabatlarini chetdan kuzatsangiz, o'zingiz ham xijolat tortib, xulosa chiqarishingiz mumkin bo'ladi. So'zning isboti uchun bir misol keltiray:

Kuni kecha maktabimizda «Ona tilim boqiydir» mavzusida o'tkazilgan Til bayramida o'quvchilar sahna ko'rinishi orqali ayrim tengdoshlarining o'zaro so'zlashishi, muomala madaniyatini ko'rsatib berishdi. Shunda zalda qattiq kulgi ko'tarildi.

Ko'rdingizmi, sirtidan qaraganda, bu holat aslida juda kulgili, lekin ayrim o'g'il-qizlarimiz bilib-bilmay, sezmay xatoga yo'l qo'yishadi. Bejizga ota-onalarimiz ham «Yurish-turishingga bir qara», deya tanbeh berishmaydi.

Aziz o'quvchilarim, ko'proq badiiy asarlar, gazeta-jurnallar o'qib, so'z boyligingizni oshiring! Zero, biz ustozlar sizlardek bilimli, ma'naviyatli, madaniyatli shogirdlarimiz bilan doimo faxrlanib yurishni istaymiz.

Shoira NIG'MATOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
13-maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari, ona tili fani o'qituvchisi

G'URURLANSAK ARZIYDI

Maktabimizda o'tkazilgan Til bayramida O'zbekiston Respublikasining «O'zbek tili to'g'risida»gi Qonuni bilan tanishar ekanmiz, uning 24-moddasi e'tiborimni tortdi. Bu moddada «O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi», deb yozilgan. Chindan ham biz, avvalo, o'z ona tilimizni hurmat qilib, sof o'zbek tilida gaplashishga odatlanishimiz lozim. Ko'plab xalqlarning o'z ona tillari bo'lsa-da, ular hali davlat tili maqomini olmaganini hisobga olsak, biz ona tilimizning bugungi maqomidan g'ururlansak, arziydi. Men go'zal tilimizning dunyo tillari ichida yanada dovrug'i oshishiga hissa qo'shishni istayman.

Javlon AVLOQULOV,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi
34-maktab o'quvchisi



MILLAT VA TARAQQIYOT KO'ZGUSI

(Madaniy-ma'rifiy bayram tadbiri ssenariysi)

Tadbir sinfda yoki maktab sahnasida o'tkazishga mo'ljallangan.

Sahna peshtoqiga «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on o'ynayi hayoti til va adabiyotidir» (Abdulla AVLONIY), «Til – millat va taraqqiyot ko'zgusi», «Til taqdiri – el taqdiri», «Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz» kabi hikmatlar qatoriga «Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondind».

Alisher NAVOIY

yoki

«Bor so'zni so'z sanab tebranmasin til, Ko'rib, o'ylab so'zla, keragini bil».

So'fi OLLOYOR

kabi hikmatlar ilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sahnaga bayram ruhiga mos kiyingan ikki boshlovchi (o'g'il va qiz bola) chiqib kelishadi.

1-boshlovchi:

– Mayli, kim qay tilidan zang-u shayq olsa,
Mening o'z tilimga ming jonim fido,
E'tibor ona tilim agar yo'q olsa,
Men bugun o'limga bo'lurman rizo.

2-boshlovchi:

– Mayli, qashshoq bolsin, mayli, behasham,
E'lon mening uchun aziz va suyuq,
Jahon minbaridan yangramasa ham,
Ona tilim menga muqaddas, buyuk.

1-boshlovchi: – Assalomu alaykum, Til bayrami tadbiriga tashrif buyurgan aziz murabbiy va ustozlar, mo'tabar mehmonlar va qadrlil o'quvchilar!

«Til – millat va taraqqiyot ko'zgusi» deb nomlangan madaniy-ma'rifiy tadbirimizga xush kelibsiz!

2-boshlovchi: – Tadbirimizni taniqli avar shoiri, Dog'istonning buyuk o'g'loni Rasul Hamzatovning «Ona tilim» deb ataluvchi mashhur she'ridan olingan yuqoridagi parcha bilan bejiz boshlamadik. Darhaqiqat, har qanday xalq, har bir millat yoki elat uchun o'z ona tilisi qadrlil va azizdir. Shunday emasmi?

1-boshlovchi:

– O'zbek tilim – elimning
Uyib turgan yuragi.
O'zbek tilim – yurtimning
Tavri, kelajigi.

Mustaqillik hadya etgan va bugungi kunda ajoyib an'anaga aylangan o'zbek tili bayramini biz har yili katta tantana qilamiz.

Tillar – insoniyatning umumiy boyligi. Ana shu boylilik ichra o'zbek tilimizday buyuk, mislsiz, jozibali, mukammal

olam ham borligi bizga g'urur va yuksak faxr tuyg'ularini bag'ishlaydi. Zero, o'zbek tilimiz nihoyatda boy til. Undagi so'zlar dunyosining ufqi bepoyon.

2-boshlovchi:

– Buyuk Mahmud Qashg'ariy
Ardoqlagan buyuk til,
Shoir bobom Navoiy
«Xamsa» bilgan suyuq til.

«O'zbek tilimizning boyligini yaxlit holda tasavvur etish uchun Alisher Navoiy asarlariga bir nazar tashlashning o'zi kifoya. Qanday bepoyon tafakkur va tuyg'ular olamiga sho'ng'iysiz. Bu xazinadan bebahra qolish mumkin emas. Alisher Navoiyning o'zlari ham «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida o'zbek tili fazilatlarini isbotlab berganlar», deydi O'zbekiston xalq shoiri Jumaniyoz Jabborov «Har so'zi durdona» nomli maqolasida.

1-boshlovchi: – Ha, darhaqiqat, Navoiy bobomiz o'zbek tilimizning asoschisi hisoblanadilar. U zamonlarda «turkiy til» deb yuritilgan ona tilimizning so'z boyligi, badiiy ijod uchun yaroqli ekanligini isbotlab, Sharq mumtoz adabiyotining hamma janr va turlarida betakror asarlar yaratdilar. Jumladan, besh mustaqil dostonidan iborat birinchi «Xamsa»ni yozib, mavjud adabiy an'analarga yangiliklar kiritdilar. O'zbek lirik she'riyatini yuksaklarga ko'tardilar.

2-boshlovchi:

– Bugun o'quvchilarimiz o'zbek tili bayramiga bag'ishlab dastur tayyorlab kelishgan, keling, navbatni ularga beramiz.

Sahnaga 4 nafar o'quvchi chiqib, tadbir dasturini davom ettirishadi.

1-o'quvchi:

– Ona tilim – jon-u dilim,
Sen bor, yashar buyuk elim.
Bugun ko'ksim tog'dek baland,
Davralarda burro tilim.

2-o'quvchi:

– Sayragayman bulbul bo'lib,
Farr etaman qalbm to'lib.
Ko'krak kerib maqansam kam,
O'zing ustod, o'zing g'olib.

3-o'quvchi:

– Qadimiysan, naqironsan,
Koni qudrat, so'z – qudratsan!
Majzing to'la zich-zich ma'no,
Ohi chashma – pok, zotolsan.

4-o'quvchi:

– Hayot qoni tomirimda,
Qorilgansan zamirimda.
Bilgansan ona tilim,
Peshonamda – taqdirimda.

O'g'il va qiz bolalar ijrosida xalq qo'shiqlaridan lafzlar raqsi bilan ijro etiladi.

1-boshlovchi: – Bolalar, endi shoiralarimizning ona tilimiz haqidagi she'rlaridan namunalar eshitamiz.

Qani, marhamat!

1-o'quvchi: – «Ona tilim», Anvar Sobirjon she'ri.

O'zbek tili so'zga boy,
Sezga ayon hoymahoy.
Bu tilda so'zlaganda,
Bulbutlar qilar xanda.
Men shu tilda so'zlagayman,
Va shu tilda kuylayman.
Navoiyning g'azali
Bu tilda zo'p mazali.
Tilini sotganlarni,
Gunohga botganlarni,
Bo'lding deya harvoni,
Kechirmagan Navoiy.

2-o'quvchi: – «Ona tilim» deb nomlanuvchi bu she'rmi shoir Miraziz A'zam yozgan.

Ona tilim, turkiy tilim,
Ardoqligim, o'zbek tilim,
Aravlayman seni doim
Qalqog'ila ko'zdek tilim.

3-o'quvchi:

– Ona tilim, o'zbek tilim
Qadim-qadim turkiy tilim,
Menga berding sav'at, bilim,
Vatanindek ko'rkli tilim.

4-o'quvchi:

– Ey, sevikli o'zbek tilim,
Turkiy tilim, ona tilim,
O'zga tilga alishmayman,
O'z onasin almarshar kim?

5-o'quvchi:

– Turkiy tilim, ko'rkli tilim,
O'zbek tilim, ko'zdek tilim,
Ona tilim, dono tilim,
Dunyoda bir dona tilim.

Sahnaga boshlovchilar chiqishadi.

1-boshlovchi: – E, qoyil, hammani ham o'z tilidan qo'ymasin. Nima dedinglar, to'g'rimi? O'zbek tilimizning behad go'zalligi, betakrorligi, so'zlarga boyligi haqida ajoyib she'rlar yodlabsiz.

2-boshlovchi: – Insonning tilini bilmasdan turib, uning dilini bilib bo'lmaydi, deb bejiz aytilmagan. Til – dil kaliti. Qadim zamonlardayoq Pifagor: «Har qanday xalqning ma'naviyatini bilmoqchi bo'lsang, eng avvalo, uning tilini o'rganishga intil», deb aytgandi.

1-boshlovchi: – Xalqimizda esa «Til bilgan – el biladi», degan naql bor. Hikmatlar xazinamizda bunday ibratli maqollar, matallar talaygina. Shundaymi? Hozir o'quvchilar tomonidan yod o'qiladigan xalq maqollariga quloq tutamiz.

* Do'sting ham – til,
Dushmaning ham – til.
* Ko'p gapning azi yozishi,
Oz gapning so'zi yozishi.
* Tilni tiyishni ham bil, dekishni ham bil.
* Mehr xazinasi – til.
* Til – aql bezagi.
* Til – aql tarzasi.
* Til tig'i qilich tig'idan o'tkir.
* Til yugurigi boshga,
Qo'l yugurigi oshga.
* Til shirinning do'sti ko'p.
* Tilni bog'la dil bilan,
Dilni bog'la til bilan.
* Fig' jarohati bitir,
Til jarohati bitmas.

2-boshlovchi:

– Shuning bilan Til bayramiga bag'ishlangan tadbirimizni yakunlaymiz. Barchangizni bayram bilan qutlaymiz!

So'ng, mustaqil O'zbekiston madhini tarannum etuvchi qo'shiq bilan tadbir yakunlanadi.

Ravshan ISOQOV,

Toshkent shahar, Bektimir tumani

SABOQ

Rosa yuvdim qo'l-betim,
Yerga tushdi olqindi.
Ko'tarib qo'ymay ketdim,
Ko'rsatib tish oqini.

Bosib nogoh sovunni,
Sirpanib ketdim, qarang.
Chalqancha yiqildim, bosh
Yerga urildi, «darang».



«Voy-voy»ladim, og'riqdan
Ovozim chiqdi baland.
O'z shumligim o'zimga,
Eh, rosa berdi-da pand.

Shu-shu bunday sho'xliklar,
Qilmay qo'ydim, ishonimg.
Kulgili holatimdan,
Do'stlarim, saboq oling.

Mo'min AVAZOV,
Sirdaryo viloyati

OTAMGA

Olis bolaligim o'tgan gulzorlar,
Mening yuragimni so'roqsiz olgan.
Bugun tovonimni o'pgan sochimda,
Otam qo'llarining izlari qolgan.

Ko'ngli ham elining dalasiday keng,
Egnida bobomdan esdalik chopon.
Mehr-u saxovati dunyolarga teng,
Baxtimni o'ylagan haqiqiy inson.

Sizga o'xshamoqni istayman, ota,
Dono o'gitingiz yodimda har on.
Bu sizga qadrdon bo'lgan ko'chalar,
Imtihon qiladi meni, otajon.

Sadoqat HOTAMOVA,
Namangan viloyati, Mingbuloq tumani

OQSHOM YOMG'IRI

Tun gardishi ko'ngilga cho'kdi,
Kapalaklar dardini to'kdi,
Chaqmoq samo ko'yagin so'kdi,
Oqshom yomg'iri naqadar go'zal!

Tun malagi asir olindi,
Bulutlar-la qasr solindi,
Lek samovot asrab qolindi,
Oqshom yomg'iri naqadar go'zal!

Botir shamol chiqdi maydonga,
Dovrug' sochdi moviy osmonga,
Yulduzlar-la jang qilgan onda,
Oqshom yomg'iri naqadar go'zal!

Yomg'ir tingach ko'rindi-ku Oy,
Bir zum o'tmay sochdi-ku chiroy,
Ozodlikdan xursand hoynahoy,
Oqshom yomg'iri naqadar go'zal!



OQ PAXTAM

Oq dalam, oppoq dalam,
Unda yashnar oq paxtam.
Moviy osmon ostida
Yozilgan kumush gilam.
Sira bitmas sanog'i,
To'lib-toshar chanog'i.
Paxta – yashil o'lkamda
Dalamning oq chirog'i!

Yulduzoy O'RMONOVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori

Darhol o'tin uchun tezak tera boshladim. Shu desangiz, etagimni tezakka to'ldirib kelib, o'choq boshiga to'kkanimni bilaman, hamma tezagam pir-pir etdi-yu, uchdi-ketdi. Qarasam, boyadan beri tezak deb terib yurganim bedana ekan. Qaytadan borib tezak terib kelib, quyovni so'rgan edim, sizga yolg'on,

menga chin, ichidan oltmish botmon yog' chiqsa bo'ladimi... Bir sonini bu yoqqa olib qo'yay desam, qo'zg'ata olmadim. Keyin hamma go'shtini tagsiz qozonga solgan edim, kattakon bir tepa paydo bo'ldi. Bir mahal go'sht pishdi. Ishtaham hakalak otib turibdi deng. Bismillo, deb yeya boshlagan edim, tishlarimga bir nima tekkanday bo'ldi-yu, tomog'imga hech nima yetib bormay tovsildi. Keyin boyagi oltmish botmon yog'ni olib, etigimni moylagan edim, bittasiga yetib, ikkinchisiga yetmay qolsa bo'ladimi... Kun bo'yi yuraverib charchagan ekanman deng, uyqum kelib qoldi. Etigimni boshimga qo'yib, uyquga ketibman. Qandaydir shovqin-suronni eshitib, uyg'onib ketdim. Bundoq qarasam, bir etigim ikkinchi etigimga:

– Seni moyladi-yu, meni moylamadi!
– deb malomat qilib, qars-qurs mushtlashishyapti. Jahlim chiqib deng, ikkisining chakkasiga bir-bir shapaloq urib, yana yonboshladim. Ertalab turib qarasam, moylangan etigim joyida turibdi-yu, moylanmagani yo'q. Arazlab ketib qolibdi! Tag'in etigim uzoqlashib ketmasin, deb ikki oyog'imni bir etikka tiqib, jadal iziga tushdim.

Ketayotsam, oldimdan uchta qozon chiqdi. Ikkitasi siniq, bittasining tagi yo'q ekan. Qozonlarni to'nkariq bo'ydim-u, bitta tagi yo'g'iga olov yoqmasdan suvsiz va tuzsiz taom pishirib, tamaddi qilib oldim-da, yana etigimni izlab ketdim. Shu alfozda hech qayoqqa burilmay, yetti kecha-yu yetti kunduz yo'l yurib, etigimni qidirdim. Bir manzilga yetganimda, etigimning izidan adashib qolsam bo'ladimi... Nima bo'lsa bo'ldi, huv anavi ko'rinish turgan ovuldan so'rab-surishtiray, deb borsam, u chivinlarning yurti ekan. Bundoq qarasam, arazlab ketgan etigim ma'rakada yelib-yugurib osh tashib yuribdi. Ro'para kelganimda, ko'zlarimni bir olaytirgan edim, qo'rqanidan oldimga ikki tovoq go'sht olib keldi. Tovoqlardagi go'shtni paqqos tushirib olib, etigimni qulog'idan cho'zib kiydim-da, zarda bilan tepinib-tepinib yo'lga tushdim. Yuraverdim, yuraverdim, bir joyga borganda, qornim

ochganini sezdim: tomoqlarim quruqshab, bir ho'plam suvga zor bo'ldim. Oftobning tig'i miyamdan o'tib boryapti, oldimda bepoyon qum. Bunday qarasam, qumning o'rtasida ko'm-ko'k ko'l, yaltirab o'ziga chorlardi. Bir qonib suv ichadigan bo'ldim-da, deya chopib borsam, ko'lning suvi tosh qotib, muzlab qolgan ekan. Bolta bilan chopsam ham yorilmaydi, tepkilasam ham o'yilmaydi. Bir mahal boshimga yaxshi fikr kelib qoldi:

shundoq kallamni qo'limga oldim-u, kekirdagimdan ushlab olib, aylantirib-aylantirib muzga bir urgan edim, o'nta ot bemaol suv ichsa bo'lguday teshik hosil bo'ldi. Ko'lning suvini yutoqib bir ho'plagan edim, og'zimda xuddi ot chopganday dupur paydo bo'ldi. Iye, bu nima bo'ldi ekan-a, deb bunday razm solsam, ko'ldagi hamma baliqlar og'zimga kirib ketgan ekan.

Besh kun piyoda yurib, boyagi biya bog'lagan joyimga kelsam, biyani bog'lab ketgan qozig'im qoziq emas, qashqirimg bo'yni ekan. Biyamni ham, qulunini ham hech vaqosini qoldirmay yeb ketibdi, la'nati, deya cho'pon gapini tugatibdi.

Xon og'ir o'yga botib, bu gaplarning qaysinisi lof-u qaysinisi rost ekanini ajratolmay karaxt bo'lib turganida, yana cho'pon sukunatni buzib:

– Xon hazratlari, ana endi va'dangizga binoan qizingizni menga berasiz, – debdi.

Bu gapdan xonning nihoyatda jahli chiqib, junbushga kelibdi:

– Jallod! – deya baqiribdi u, – darhol mana bu cho'ponning boshini tanasidan judo qil!

– Iye, xon hazratlari, nega unday deyapsiz?! – debdi hayron bo'lib.

– Negaki, aytgan lofing yuztaga yetgani yo'q! – deya dag'dag'a qilibdi xon. – To'qson to'qqizta bo'ldi, xolos.

Shunda cho'pon kulib debdi:

– To'qson to'qqiztani yuzta deganimning o'zi bitta lofga o'tadi, shu bilan yuzta bo'libdi-da, xon hazratlari!

Shunday qilib, xon oddiy bir cho'ponni o'ziga vazir qilib tayinlab, to'y-u tomoshalar bilan qizini unga beribdi.

Muborak FOZILOVA tarjimasi
(Qisqartirilgan holda chop etildi)
(TAMOM)



(Qoraqalpoq xalq ertagi)



O'SMIRLARIMIZ JAHON CHEMPIONATIDA

(Boshi 1-betda)

24 ta baxtli terma jamoa
«Kim eng kuchli?» savoliga javob
izlashadi. Ushbu mundial ham Iker
Kasilyas, Ronaldino, Sesk Fabregas, Toni
Kross, Neymardek charm to'p ustalari kabi
yangi nomlarni kashf etishiga ishqibozlar-u
mutaxassislar ishonch bilan
qarashmoqda.



FIFA (Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi) bayrog'i ostida o'tkaziladigan mazkur nufuzli musobaqada tashkilotga a'zo 210 ga yaqin mamlakatning barchasi o'z termalarini ko'rishni istaydi, albatta. Lekin bunga erishish oson emas. Jismoniy, ruhiy jihatdan yaxshi tayyorgarlik ko'rish, qolaversa, tinimsiz mehnat qilish, kuchli terma jamoalar bilan o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazish asnosida tajriba orttira borish lozim. Xabaringiz bor, o'smirlarimiz o'tgan yili Eronda o'tkazilgan 16 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo chempionatida munosib ishtirok etib, O'zbekiston futbol tarixida ilk bor Osiyo chempioni degan sharaflini nomga sazovor bo'lishgan, shuningdek, jahon chempionatida qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishgandi.

17-oktabrdan 8-noyabrga qadar davom etadigan mundialga Birlashgan Arab Amirliklarining Al-Ayn, Dubay, Sharja, Abu-Dabi, Ras Al-Haym va Fujayra shaharlari mezbonlik qilmoqda.

Osiyo chempioni sifatida jahon chempionatida ishtirok etayotgan O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi «S» guruhida Xorvatiya, Panama va Marokash futbolchilari bilan raqobat-

lashadi. Ushbu guruh o'yinlari Fujayra shahridagi stadionda bo'lib o'tadi.

Jahon chempionati qoidasiga binoan, olti guruhning har biridan dastlabki ikki o'rinni egallagan hamda uchinchi o'rindagi eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan yana to'rt terma jamoa musobaqaning pley-off bosqichiga yo'llanma oladi.

O'zbekiston o'smirlar terma jamoasining ketma-ket ikkinchi marotaba o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida qatnashish huquqini qo'lga kiritgani Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda sportni, jumladan, futbolni rivojlantirishga qaratilayotgan doimiy e'tibor samarasidir.

Bundan ikki yil muqaddam Meksikada o'tgan o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida ilk marotaba qatnashgan yosh futbolchilarimiz halol o'yini, iste'dod va mahorati bilan O'zbekistonimizni dunyoga yanada kengroq tanitdi, serquyosh mamlakatimizda hech kimdan kam bo'lmagan va kam bo'lmaydigan avlod voyaga yetayotganini ko'rsatdi. O'sha mundialda debutant sifatida to'p surgan o'smirlarimiz jahon futbolida o'ziga xos nom qozongan, kuchli futbol maktablariga ega AQSH, Chexiya va Avstraliya kabi tajribali terma jamoa-

larni mag'lubiyatga uchratgan edi.

Bugun mamlakatimizda mohir futbolchilarning yangi avlodi tarbiyalanmoqda. Bolalar va o'smirlar futbol maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, olimpiya zaxiralari kollejlari, futbol maktablari va akademiyalari faoliyatining zamon talablariga mos ravishda yo'lga qo'yilgani bunda muhim omil bo'lmoqda.

Ana shu sa'y-harakatlar samarasida iqtidorli futbolchilarimiz o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi qit'a birinchiliklarida eng kuchli terma jamoalar qatoridan joy olib, muntazam ravishda jahon chempionatlarida to'p surish imkoniyatiga ega bo'lyapti. O'z navbatida, yosh futbolchilarimizning jahon chempionatlaridagi natijalari ham tobora yaxshilanayotgani futbolni rivojlantirishda to'g'ri yo'ldan bora-yotganimizning tasdig'idir.

Ushbu mundialga yo'l olgan O'zbekiston o'smirlar terma jamoasining bo'lajak musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun barcha sharoit yaratildi. Kuchli saralashdan muvaffaqiyatli o'tib, terma jamoa tarkibidan joy olgan futbolchilar

tajribali murabbiy Dilshod Nuraliyev rahbarligida o'ndan oshiq o'quv-mashg'ulot yig'inida tajriba va mahoratini oshirdi. Ayniqsa, Avstriya va Ispaniyada tashkil etilgan yig'in va turnirlar futbolchilarimiz uchun ancha samarali bo'ldi.

Jahon chempionatiga puxta tayyorgarlik ko'rdik, — dedi O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiyi D. Nuraliyev. — Terma jamoamiz kuchli futbolchilardan tarkib topgan. Jahon chempionatida muxlis-u mutaxassislarimiz ishonchini oqlashga harakat qilamiz. Shogirdlarimdan umidim katta.

Eslatib o'tamiz, Dilshod Nuraliyev bosh murabbiyligidagi O'zbekiston U-17 o'smirlar terma jamoasi jahon chempionati guruh bosqichi o'yinlarini 18-oktabr kuni Panama o'smirlar terma jamoasiga qarshi o'yin bilan boshladi. Guruhdagi 2-tur o'yini 21-oktabr kuni Marokash o'smirlariga qarshi bo'lib o'tsa, 24-oktabr kuni 3-turda Xorvatiyaga qarshi maydonga tushadi. Guruh bosqichidagi barcha o'yinlar Fujayra stadionida bo'lib o'tadi.

Shoh MUHAMMAD

Dono xalqimiz «Sog' tanda – sog'lom aql» deb bejizga aytmagan.
Sport bilan muntazam shug'ullangan, bolalikdan u bilan oshno
tutingan inson borki, u ham ma'nan, ham
jismonan barkamol bo'lib voyaga
yetarydi.

ORZUSI – CHEMPION BO'LISTI

Sizga tanishtirmoqchi bo'lgan tengdoshimiz Otabek A'zamov Chirchiq shahridagi 5-umumta'lim maktabining 7-sinfida tahsil oladi. U ham bolaligidan sportga, jumladan, futbolga mehr qo'ygani bois, mana 3 yildirki, ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullanib keladi. Hali yosh bo'lishiga qaramay, u o'z iqtidori bilan murabbiylar nazariga tushib, bir qancha musobaqalarda jamoasi bilan birga muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmogda. Jumladan, joriy yil Vataniy himoyachilari kuniga bag'ishlab

o'tkazilgan sport musobaqalarida Otabek A'zamov va uning jamoadosh do'stlari faxrli 3-o'rinni, Toshkent viloyati o'smirlari o'rtasida o'tkazilgan futbol turnirida 2-o'rinni, «Paxtakor – 79» xotirasiga bag'ishlangan musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritishdi.

– Bolaligimdan mahalladagi do'stlarim bilan birga futbol o'yinab, ushbu sport turiga qiziqishim ortgan. Ta'lim maskanimizda o'tkaziladigan har bir sport tadbirlarida faol ishtirok etardim. Buni ko'rgan akam meni o'zi to'p suradigan «CHTZ» futbol jamoasiga olib bordilar. Hozirda shu

yerda malakali murabbiylar qo'l ostida futbol bilan jiddiy shug'ullanib, o'z mahoratimni oshira bormoqdaman. Ayniqsa, ustozim Islom Abdullayevdan minnatdorman, — deydi Otabek A'zamov.

Yosh futbolchidagi tezkorlik, hujumlarni bartaraf etishdagi mahorati uni tug'ma himoyachi ekanidan dalolat edi. Shuning uchun ham murabbiylari uni maydonning himoya chizig'ida o'ynatib, yangilashmadi. Otabek barcha uchrashuvlarda raqib jamoasi hujumlarini qaytarib, kezi kelganda, o'zi ham hujumga o'tishga intiladi.



Kelajakda Baxtiyor Ashurmatov, Anzur Ismoilov, Jerard Pike, Karles Puyol kabi mahoratli himoyachi bo'lib, yurt bayrog'ini jahon yashil maydonlarida ko'klarga ko'tarishni niyat qilgan tengdoshimizga, orzularing ushalsin, deymiz.

Umida AKROMOVA,
 Chirchiq shahridagi 26-umumta'lim
 maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

The boy with the best idea

A long time ago a man with an elephant came to village. This was the first time to the people of the village had seen an elephant, and they wanted to know the weight of the elephant. But everybody had different ideas about it. Each of them said that they were right and the others were wrong.

They tried to think of a plan which they could know how much the elephant weighed. But they could not find any.

Then a boy said, I have a plan and I can tell you how much the elephant weighs; please let me try it.


The people of the village did not want to listen to boy. How can he find a plan

when we, old people, cannot, they said. But they decided to let him try.

The boy first told them to put the elephant in a big boat. Then boy made a mark on the side of the boat where the water reached. Then he told them to take the elephant out of the boat, and the boat rose in the water.

After that, he collected some large stones and told the people to put them in the boat. The boat began to go down again till at last the water came up to the mark on the side. This showed that the stones in the boat were of the same weight as the elephant.

It was very easy to weight the stones. So the people knew how much the elephant weighed.



BOLAKAYNING G'OYASI

Qadim zamonda bir kishi o'z fili bilan qishloqqa kelibdi. Bu qishloq odamlari filni birinchi marta ko'rib turishgandi. Shundanmi, uning vaznini bilishga juda qiziqishibdi. Biroq, ham-mada turlicha fikrlar bor edi. Birov buni to'g'ri desa, boshqa birov noto'g'riligini ta'kidlabdi.

Ular filni qanday o'lchash mumkinligi haqida juda ko'p bosh qotirishdi, biroq, yo'lini topa olishmabdi. Kutilmaganda bir bolakay: «Menda bu bahaybat jonivorni qanday o'lchash mumkinligi haqida reja bor, iltimos, harakat qilib ko'rishimga ruxsat bering», debdi. Qishloq odamlari bolakayning gapini hatto eshishni ham xohlasmabdi.

– Axir katta yoshlilar aqli yetmagan narsani bolakay qaydan bilardi, – deyshibdi ular.


Biroq, boshqa chora topilmagach, rozi bo'lishibdi.

Bolakay dastlab filni katta qayiqqa o'tkazishlarini so'rabdi va qayiqning suvga botib turgan joyini o'lchab olibdi. So'ngra, uni chiqarib qayiq ichiga katta-katta toshlarni solibdi. Qayiqni fil unga chiqqanda bosib turganchalik suvga botguncha to'ldiribdi. Toshlarni o'lchash esa unchalik qiyin ish emasdi-da! Shu tariqa bolakay qishloqdoshlari mushkulini oson qilibdi.

QISSADAN HISSA:

Aql yoshda emas, boshda.

Ingliz tilidan Baxtijon ISROILOVA tarjimasi



Ushbu chizmadagi katak va doiralarda yozilgan U va T harflaridan nechta «TUT» so'zini hosil qilish mumkin?

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'iasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURGUNOV

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruz
MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin
ORIPOV
Musahhih
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 46871
Buyurtma N: J 8317